

DUNYO TARJIMASHUNOSLIK TARIXIDAN

Sharipova Shahzoda

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tarjima nazariyasi va amaliyoti I-bosqich talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqola tarjimashunoslik tarixi to'g'risida so'z boradi. Shu bilan birga, so'z tarjima qilish usullari haqida bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tarzabon, lisoniy, g'ayrilisoniy,subtitlar, interpretation, translation.*

Kirish: Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqda. Tarjimonlik xalqlarni bir-biriga bog'lovchi vosita hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar qanchalik mustahkam bo'lsa, taraqqiyot ham yuksalib boradi. Tarjima to'g'risida so'z ketar ekan, eng avvalo, uning tarixiga yuzlanamiz. Tarjima tarixi eng qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi va eng yangi deb ataladigan, juda uzoq davom etadigan tarixiy davrlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi zamonlardan bugungi kungacha tarjima Yer yuzining O'rta Yer dengizi havzasi, Sharqda ikki daryo oralig'ida yashovchi xalqlar ya'ni shumerlar, suryoniylar, bobulonliklar, ossuriyaliklar, xetlar, Misr, Eron, Hindiston, Xitoy, Turon mamlakatlari kabi mintaqalarda ayni bir vaqtning, o'zida ham ijtimoiy madaniy aloqalar vositasi, ham yozma adabiyotning bir turi, tarmog'i sifatida rivojlandi. Tarjima tufayli madaniy ongning rivojlanishi, fikrlarning turg'un bo'la boshlashi, ma'naviyruhiy dunyoqarashlarning kengayishi va ilm-fandagi o'zgarish jarayonlariga juda chuqur va har tomonlama ta'sir ko'rsatgan deya olamiz. Eng qadimgi zamonlarda, ya'ni miloddan avvalgi III-I asrlarda Yer yuzida Rim sivilizatsiyasi yuksaldi. Albatta, yuksalishda tarjimonlik mahorati alohida ajralib turadi. Tarjima boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik, milliy mahdudlikka olib keladi. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'pri deb qaraladi.

Demak, tarjima:

- Xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishi;
- Ilmiy -texnik taraqqiyotning jadallashuvi;
- Madaniyat, san'at va adabiyotning bir-biriga ta'siri;
- Tillarning boyishida muhim ro'l o'ynaydi;

Tarjima muayyan tilda og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalashdir. Ilmiy kuzatishlarga nazar soladigan bo'lsak, tarjimani biz bir nechta qarashlar bilan o'rganishimiz mumkin. Ma'lumki, qadimda O'rta Osiyo va Eron xalqlari orasida notiqlik san'ati juda rivojlangan. Buni tarjimonlikning birinchi pog'onalaridan biri deb hisoblasak ham bo'ladi. Notiqlarni "tarzabon" deb atashgan, "Tar" fors tilida yangi, shirali, tarovatli degan ma'noni anglatgan, "Zabon" til deganidir. Tarzabon notiq, chiroyli gapiruvchidir. Ular chuqur bilim, keng dunyoqarash, notiqlik mahoratiga

ega bo'lishdan tashqari bir nechta tillarni bilganlar va o'z nutqlarida ulardan foydalanganlar.

Tarjimonlar til bilishdan tashqari, matnning mazmunini to'g'ri yo'l bilan tarjima qilishlari lozim. Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog'liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o'tgan, tildan tashqari muammolari g'ayrilisoniy muammolar hisoblanadi. Tarjima to'g'risida so'z ketar ekan, o'zbekistonlik tarjimonlar haqida ham gapirib o'tish lozim. Mamlakatimizda bu soha shu darajada ravnaq topishida buyuk tarjimonlarning o'рни beqiyosdir. Masalan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Mirtemir Qozoqov, Usmon Nosir, Asqad Muxtor kabilarni kiritishimiz Zamonaviy tarjimonlar haqida so'z boradigan bo'lsa, ular jahon adabiyoti asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, mamlakatning hayotini boyitib kelishmoqda. Bunga misol qilib Ilhomjon To'xtasin, Ulug'bek Yo'ldoshev, Olimjon Jamilov, Dilorom Tursunova, Zulfiya Abdullayeva Shuhrat Mirzayevlarni aytsak bo'ladi. Ular dunyo adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda davom etmoqda. Aksariyat tilshunos va tarjimashunos olimlar tarjimani tasniflashda bir qancha mezonlar

mavjud ekanligini ta'kidlashadi va ular esa quyidagilar:

1. Tarjimani aynan kim amalga oshirishiga Bugungi kunda tarjima inson yoki kompyuter tomonidan qilinishi mumkin.

2. Nutq shakli : yozma tarjima, yozma matnning og'zaki tarjimasi yoki og'zaki tarjima kabilar bilan farqlanadi. Bu mezon, shuningdek, subtitirlash, ya'ni ekranda chiqib turgan matnni ko'rib tarjima qilish, dublyaj qilish yoki asl nutq o'rniga ovozli tarjimani imkoniyati boricha o'z vaqtida ovozlashtirishdan tortib lan qimirlashigacha moslashtirish demakdir.

3. Asliyat matn mohiyatini idrok etish. Bunda tarjimon matnni ko'rish yoki eshitish orqali tarjima qiladi.

4. Asliyat matnni idrok etish va tarjima qilish o'rtasidagi vaqt oralig'i: ketma-ket yoki sinxron.

5. Tarjimaning yo'nalishi: o'z ona tiliga yoki ona tilidan chet tiliga.

6. Og'zaki tarjima usullariga ko'ra: eslatmalar orqali yoki gapma-gap og'zaki tarjima.

7. Asliyat matnning uslubi yoki janriga ko'ra: badiiy adabiyot va rasmiy uslubdagi tarjima.

Tarjima turlarini umumlashgan holda shakli va mazmuniga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir. Barchamizga ma'lumki, har qanday til og'zaki va yozma nutqda ifodalanadi. Shu sababdan tarjima shakliga ko'ra 2ga :

-Yozma ;

-Og'zaki ;

Rus tilidagi "perevod", o'zbek tilidagi "tarjima" so'zi ingliz tilida ikki xil talqin qilinadi. Yozma tarjima -translation, og'zaki tarjima -interpretation. Ular yozma matn yoki og'zaki nutqdan kim, qanday tarjima qilishiga qarab Biz bu ikkalasini farqlagan holda tarjima amaliyotini olib borishimiz va tarjima tayyorlash jarayonida bu jihatga jiddiy e'tibor qaratishimiz darkor. Yozma tarjimada matnning barcha detallarini imkon qadar

tarjima tiliga olib o'tilishiga erishishimiz, og'zakida esa so'zlovchining asosiy nutqini tinglovchiga bir maromda yetkazib berishimiz kerak. Bu ikki tushunchaning farqini tarjima va tarjimonlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar nomlari va ularning vazifalarida ham ko'rishimiz mumkin. Dunyo bo'yicha yozma tarjiminlarni bir-biriga bog'lab turuvchi tashkilotlar Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi, ya'ni I.F.T (the International Federation of Translators) deb yuritilsa, og'zaki tarjimonlar uchun esa I.A.C.I (the International of Conference Interpretes) mavjud.

Xulosa qilib aytganda, boshqa xalqlar bilan munosabat o'rnatishda, tillarning boyishida tarjimonning o'rnini beqiyosdir. Bu sohaga qiziqib ko'pchilik til o'rganishni boshlashadi. Shu tariqa, til o'rganish yanada qulay va samarali jarayonga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salomov.G'. Tarjima nazariyasi [1978]
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi [2000-2005]
3. G'ofurov .Tarjima nazariyasi
4. A.Mo'minov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti
5. G'.Salomov.Tarjimon mahorati